

TOG'AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” QISSASINING SYUJET QURILISHI

Ro'ziyeva Xolida Shomirzayevna

Ruziyevaxolida01 @gmail.com

+998978081712

TerDUPI o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarining g'oyaviy mazmuni, uning syujet qurilishi, syujetning ichki uzvlari, asar qahramonlarining pok muhabbati, yoritilgan.

Kalit so'zlar: Syujet, konflikt, g'oyaviy mazmun, psixologik konflikt, ijtimoiy konflikt, shaxsiy konflikt, prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, epilog, yechim

Annotation: The article describes the ideological content of Togai Murad's work "People walking in the moon", its plot construction, internal parts of the plot, the pure love of the heroes of the work.

Keywords: Plot, conflict, ideological content, psychological conflict, social conflict, personality conflict, prologue, exposition, connection, social development, epilogue, resolution

Аннотация: В статье описывается идейное содержание произведения Тогая Мурада «Люди, идущие по луне», его сюжетное построение, внутренние части сюжета, чистая любовь героев произведения.

Ключевые слова: Сюжет, конфликт, идейное содержание, психологический конфликт, социальный конфликт, личностный конфликт, пролог, экспозиция, завязка, развитие событий, эпилог, развязка

Syujet deganda (fr. sujet — predmet, tema), asar qahramonlari hayotidagi voqealar va ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, to'qnashuvlar, o'sish-o'zgarishlar tushuniladi. Badiiy asarda syujetning yaratilishini g'oyaviy mazmun boshqaradi. G'oyaviy mazmunning talabiga uyg'un holda xarakterlar namoyon bo'ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etiladi. Voqealar silsilasi o'z navbatida asar g'oyasini badiiylashtiradi, uni tiriltiradi.¹

Atoqli adibimiz Tog'ay Murod qalamiga mansub ushbu mo'jaz asarning g'oyaviy mazmuni, syujet ketma-ketligi juda mohirlik bilan tasvirlanganki, kitobxon ushbu hodisotlarni o'qir ekan, bevosita o'zini shu jarayonda ishtirok etadigandek his qiladi

¹ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 122-123-betlar

Syujet obrazlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, simpatiyalar va antipatiyalar ekan, demak, u hayot ziddiyatlarini ham ixtiro qiladi, umumlashtiradi, kashf etadi. Hayotiy ziddiyatlar asarga ifoda etilgan g'oyalar, tasvirlangan xarakterlar, kayfiyatlar kurashi tarzida ko'chadi va u konflikt deb yuritiladi.

Konflikt - syujetni harakatga soluvchi kuch. Uning ta'sirdorligini, qiziqarligini, ko'lamini belgilovchi unsurdir. Uning turli xillari uchraydi:

1. Psixologik (ruhiy) konflikt - qahramon qalbidagi hissiyotlar, tushunchalar (ojiz va kuchli jihatlar) kurashi.

2. Ijtimoiy konflikt - asar qahramonlari bilan ular yashayotgan sharoit o'rtasidagi kurash.

3. Shaxsiy - intim konflikt - bir biriga qarama-qarshi xarakterlar, guruhlar o'rtasidagi kurash. ²

Badiiy asarlarda voqealar rivojining ketma-ketligi ma'lum bir tushunchalar bilan ataladi

1. Prolog (gr. pro — old, avval; logos — so'z) — muqaddima (arab. kirish, debocha, asarning dastlabki tushuntirish, boshlanish qismi ma'nolarini beradi)da yozuvchining niyati va maqsadi yoki tasvirlamoqchi bo'lgan voqealarining qisqacha, siqiq tarzidagi izhori beriladi. Ba'zida asosiy voqeadan uzoq bo'lgan, lekin keyinchalik shu voqeani oydinlashtiruvchi biron-bir ko'rinish tasvirlanishi mumkin.³

Qissa boshidagi qahramon tilidan aytilgan quyidagi jumlar butun umr birga yashagan ikki insonning hayot yo'li haqida ekanligini bilib olishimiz mumkin.

— Quloq sol, momosi, quloq sol. Qayerdandir odam ovozi kelyapti...

Sayrak adirda yonboshlab yotmish bobomiz, momomizga shunday dedilar.

Bobomiz og'izlarini angraygannamo ochdilar. O'ng quloqlarini yellar yelmish tarafga tutdilar.

Yellar, ovozlarni yorqin olib kelmadilar.

Bobomiz o'ng kaftlarini quloqlari sirtiga tutdilar. Yelpana qildilar. Nafas olmadilar.

Bor vujudlarini berib quloq soldilar.

Bobomiz shunda-da bir nimani eshitmadilar. Chuqur tin oldilar.

Bobomiz oydinga tikildilar. ⁴

² Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 123-124-betlar

³ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.126-bet

⁴ Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018. 498-bet

2. Ekspozitsiya (lot. yexpositio — tushuntirish) — dastlabki holatda asarda yuz beruvchi voqealarning o‘rni, joyi, asar qahramonlarining harakatlariga turtki beruvchi dastlabki voqealar tasvirlanadi.⁵

Prologda asar qahramoni
Sovchilar qadami qizlik eshikka sharaf!
Sovchilar oqshom vaqti keldi.
Uy bekasi dasturxon yoydi. Xo‘jasi mezbonlik qildi. ⁶

3. Tugun - badiiy asardagi harakatning boshlanishi, konfliktning «urug‘i». U ilk tarzda, «urug‘» shaklida ko‘ringan qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Konfliktning boshlanish jarayonidan xabar beradi. ⁷

Kenja zurriyot bo‘lmish qiz besh yasharligida ota-onadan sag‘ir qoldi.
Akasi qo‘lida qoldi.

Yanga bo‘lmish qoboq-tushmug‘iga qarab kun ko‘rdi.

Yanga bo‘lmish qoboq uydi...

Shunda... shunda, sag‘ir nafas olmadi! Sag‘ir ko‘zlari pit-pir etdi. Sag‘ir ko‘zlari olma terdi.

Sag‘ir hadahalab bordi. Jiyani beshigini qo‘sh- qo‘llab ushladi. Sag‘ir jon-jahdi bilan beshik tebratdi.

«Beshik tebratsam, yangam qobog‘i ochiladi, keyin, meni urishmaydi...»

Sag‘ir ana shunday umidga bordi!

Sag‘ir qorni ochdi. Sag‘ir barmog‘ini so‘rdi. Ammo miq etmadi.

Yanga dasturxon yoydi. Sag‘irni dasturxonga imladi. ⁸

4. Voqea rivoji. Tugundan boshlab to kulminatsion cho‘qqigacha tasvirini topgan voqealar —voqea rivoji hisoblanadi. Voqea rivojida obrazlarning o‘zaro munosabatlari (kurashlari, simpatiya va antipatiyalari) keng va batafsil tasvirlanadi, xarakterlarning qirralari baralla ochiladi, asarda aks ettiriluvchi muammo o‘zligini bo‘yi-basti bilan yaqqol ko‘rsatadi.⁹

Onamiz, otamiz yangi ro‘zg‘or qilayapti, deya eshitdi.

Onamiz kuyib-kuyib ketdi!

Deraza tokchasiga tirsakladi.

⁵ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.126-bet

⁶ Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018. 498-bet

⁷ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.127-bet

⁸ Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018. 500-bet

⁹ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 128-bet.

— Go‘rga bo‘lsa, menga nima... — deya pichirladi.

Kaftini iyagiga qo‘ydi. Boshini chapga xiyol qiyshaytirdi, tashqariga tikildi.

Yuzlari lov-lov etdi. Yonoqlari bulk-bulk uchdi. Ko‘kraklari osti o‘pirilib tushayotganday bo‘ldi. O‘pirilish ko‘ksini borgan sayin quyiga bosdi.¹⁰

5. Kulminatsiya (lat. sulmen — cho‘qqi) —syujet rivojining eng yuqori cho‘qqisi sanaladi. Bu «cho‘qqi»dan turib qarasak, asarda ishtirok etuvchi hamma obrazlarning qismati aniq ko‘rinadi: ular xarakteri to‘la-to‘kis ochiladi.¹¹ Otamiz qaynog‘asi darvozasida oyoq ildi. Uzangidan oyoq oldi. Otini yetaklab ichkariladi. Ichkarida jamoa jam bo‘ldi.

Otamiz jamoa bilan yuzma-yuz bo‘ldi. Yugan tutamlab, dol turdi.

Salmoqlab-salmoqlab, ayoli javobini berdi:

— Ikki taloq! Bo‘ldimi? — dedi.

Deraza oldida o‘tirmish Oymomo onamiz o‘z javobini eshitdi.

Onamiz akasi muztar bo‘lib qotib qoldi.¹²

6. Yechimda asar syujetidagi voqea va qahramonlar taqdiri hal qilinadi.¹³

Otamiz, onamiz yuzlariga egildilar.

— Momosi, mendan rozi bo‘l, momosi... — dedilar. — Ko‘zingni och, momosi, mendan rozi bo‘l...

Onamiz tag‘in ko‘zlarini yumib-ochdilar, yumib ochdilar... Bilinar-bilinmas bosh qimirlatdilar...

Otamiz o‘kirib yubordilar...¹⁴

7. Epilog (yunoncha. yepi — so‘ng, logos-co‘z) — xotima (ar. biror narsaning oxiri, so‘ngi, tugashi, tamom bo‘lishi) syujetning asosiy voqealari tarnom bo‘lsa-da, hamon taqdiri aniq bo‘lmagan ba‘zi qahramonlarning qismati xotima topadi.¹⁵

— Yur, ketdik, momosi, endi biz kelmaymiz... — dedilar.

Ko‘zlari kulmish bobomiz, yuzlari kulmish bobomiz, yonoqlari kulmish bobomiz, lablari kulmish bobomiz tantana qildilar.

— Bu adirlar bizniki! — dedilar.

O‘ksiklar zarbidan yelkalari silkina berdi.

¹⁰ Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018. 581-bet

¹¹ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 128-bet.

¹² Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018. 583-bet

¹³ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 128-bet.

¹⁴ Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018. 595-bet

¹⁵ Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 129-bet.

— Bu oydinlar bizniki! — dedilar.

Ko'ngillari tinmayin o'ksimish bobomiz, yelkalari tinmayin silkinmish bobomiz so'nggi bor, so'nggi bor oyoq ildilar. Qomatlarini adl tutdilar.

Sayrak adir, adirda o'tirmish o'g'il-qizlariga tantana bilan qaradilar.

Bobolarim birin-ketin suyak surib o'tgan yer.

Momolarim sochlarini qirqta o'rib o'tgan yer.

Bobomiz so'qmoqdagi so'nggi qadamlarini bosa-bosa, oydindagi so'nggi so'zlarini ayta- ayta, yo'llarida davom etdilar:

— Endi ketsak mayli!..¹⁶

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, syujet voqealar davomiyligi, ketma-ketligidir. "Oydinda yurgan odamlar" asarining rivojini tahlil qiladigan bo'lsak, asar insoniylik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan, pok o'zbekona sevgi motivlari aks ettirilgan. Qahramonlarning bir-birini bir umr ardoqlashi, mehr ko'rsatishi soddagina tasvirlangani kitobxonning ko'nglidagi mavhum tushunchalarni uyg'otishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018.
2. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.

¹⁶ Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018. 600-bet.